O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 316.334.2(575.1)

Dilmurad T.IZZATOV,
Mustaqil izlanuvchi, Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti, Toshkent, O‘zbekiston.
E-mail:dilmuradizzatov@gmail.com, ORCID:0009-0006-0117-352X

O‘zMU professori v.b. sots.f.d. A.Abduholiqov taqrizi ostida

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY SIYOSATNING YANGI USTUVORLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash masalalari ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari sifatida sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Kambag‘allikning ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatlari, uning ta’lim, kasbiy malaka, mehnat bozoridagi imkoniyatlar va ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, mahallabay ishlash tizimi, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, bandlikka ko‘maklashish va ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishdagi o‘rni asoslanadi. Ijtimoiy siyosat natijadorligini baholash uchun barqaror bandlik, munosib mehnat, aholi daromadlari, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va kambag‘allikka qayta tushish xavfini qamrab oluvchi mezonlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy siyosat, kambag‘allik, inson kapitali, aholi bandligi, mehnat bozori, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, munosib mehnat, mahallabay ishlash, ijtimoiy sheriklik, barqaror rivojlanish.

НОВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЛАСТИ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация

В статье анализируются взаимосвязанные с социологической точки зрения вопросы сокращения бедности, развития человеческого капитала и занятости как области социальной политики. Подчеркиваются характеристики бедности как многогранного социального явления, ее аспекты, связанные с образованием, профессиональной квалификацией, возможностями на рынке труда и социальной инфраструктурой. Также обосновывается роль системы работы на уровне микрорайонов, сотрудничества между государственными и гражданскими институтами, а также неправительственными некоммерческими организациями в предоставлении социальных услуг, содействии занятости и повышении эффективности социальной политики.

Предлагаются критерии оценки эффективности социальной политики, включая устойчивую занятость, достойную работу, доходы населения, доступ к социальным услугам и риск возвращения к бедности.

Ключевые слова: Социальная политика, бедность, человеческий капитал, занятость, рынок труда, неправительственные организации, гражданское общество, социальная защита, достойная работа, работа на уровне соседских отношений, социальное партнерство, устойчивое развитие.

NEW PRIORITIES FOR SOCIAL POLICY REGARDING POVERTY REDUCTION AND HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes, from a sociological perspective, the interconnected issues of poverty reduction, human capital development, and employment as key domains of social policy. It highlights the nature of poverty as a multifaceted social phenomenon, examining its various dimensions—including those related to education, professional qualifications, labor market opportunities, and social infrastructure. Furthermore, the article substantiates the importance of neighborhood-level interventions and collaboration among state institutions, civil society, and non-governmental, non-profit organizations in the delivery of social services, the promotion of employment, and the enhancement of social policy effectiveness.

Finally, it proposes criteria for evaluating the effectiveness of social policy, encompassing factors such as sustainable employment, decent work, household income, access to social services, and the risk of falling back into poverty.

Key words: Social policy, poverty, human capital, employment, labor market, non-governmental organizations, civil society, social protection, decent work, neighborhood-level work, social partnership, sustainable development.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy o‘sishni faqat yalpi ichki mahsulot hajmi yoki investitsiyalar bilan emas, balki ularning aholi turmush darajasi ва inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ta’siri bilan baholash muhim mezon bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kambag‘allikni qisqartirish nafaqat iqtisodiy, balki insonning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi ва jamiyat hayotidagi faolligini belgilovchi murakkab ijtimoiy-siyosiy masaladir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inson qadrini ulug‘lash, mahalla darajasida bandlikni ta’minlash va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan manzilli islohotlar ushbu yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘liq holda ilmiy-amaliy tahlil qilish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish natijalarini baholashda rasmiy statistika metodologiyasi va davriyligini e’tiborga olish zarur. Mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan izchil pasayib, 2022-yilda 14,1, 2023-yilda 11,0, 2024-yilda 8,9 va 2025-yilda 5,8 foizni tashkil etdi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasida kambag‘allikni qisqartirish islohotlari natijadorligiga to‘xtalib, shunday ta’kidladi:

“Kambag‘allik masalasini ochiq tan olib, uni keskin qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston tajribasini yaratdik. Ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta’lim olishi va yashash sharoitini yaxshilash bo‘yicha “mahallabay” ishlash tizimini yo‘lga qo‘ydik. Izchil sa’y-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda kambag‘allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishdik. Ushbu raqamlar zamirida ro‘zg‘origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning quvonchi va shukronalik tuyg‘ulari mujassam” [2].

Mazkur dinamika kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Biroq ushbu natijalarni barqaror mustahkamlash uchun aholining doimiy daromad manbalari, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini birgalikda rivojlantirish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kambag‘allikni “imkoniyatlar cheklanganligi” deb talqin qilish g‘oyasi A.Sen (1999) va M.Nussbaum (2011) ishlarida asoslangan bo‘lsa, S.Alkire va J.Foster (2011) ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) orqali ta’lim va salomatlikka kiritilgan investitsiyalar kambag‘allikning avloddan-avlodga o‘tishini uzganini ko‘rsatadi. Xalqaro amaliyotda G.Esping-Andersen (1990), D.Acemoglu va J.Robinson (2012) ijtimoiy himoya va institutlar samaradorligini tahlil qilgan, A.Banerjee va E.Duflo (2019) esa manzilli transfertlar va faol bandlik dasturlarining (ALMP) natijadorligini isbotlagan.

Mahalliy tadqiqotlarda Sh.Mustafayev, A.Vahobov va Sh.Xodjibakiyev mahallalardagi “hokim yordamchisi” hamda “ijtimoiy xodim” institutlarini kambag‘allikdan chiqarishning “o‘zbek modeli” sifatida baholaydi. K.Xudoyberdiyev va B.Umurzakov ijtimoiy transfertlar bilan birga kasbga qayta o‘qitishni, A.Saitov esa ijtimoiy xizmatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) bilan sheriklikni kengaytirishni asoslagan.

Biroq iqtisodiy o‘sishning inson kapitali sifatiga (ta’lim, munosib mehnat, kasbiy mobillik) transformasiyalanishi hamda mahallabay tizimning yangi ijtimoiy siyosat bilan sinergik ta’siri integratsion tarzda yetarlicha o‘rganilmagan.

Tahlil va natijalar. Kambag‘allikka munosabatning o‘zgarishi zamonaviy ijtimoiy siyosatning muhim xususiyatidir. Bugungi kunda kambag‘allik faqat moddiy resurslar yetishmasligi emas, balki insonning ta’lim, tibbiyot, munosib ish va o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarining cheklanishi sifatida baholanmoqda. Shu sababli, ijtimoiy siyosat insonning kelajakda mustaqil daromad topishi va hayotiy tanlovlarini kengaytirishni ko‘zlashi lozim.

O‘zbekistonda aholi muammolarini “mahallabay” o‘rganish va manzilli yordam ko‘rsatish tizimi ushbu yondashuvning amaliy ifodasidir. Biroq manzilli ishlash faqat muammoni aniqlash bilan cheklanmay, ehtiyojlarni tegishli xizmatlar, kasbiy tayyorgarlik va munosib ish o‘rinlari bilan bog‘lashi зарур. Ijtimoiy siyosatda “muammoni aniqlash – individual yechimni belgilash – tegishli xizmatga yo‘naltirish – natijani baholash” zanjirini shakllantirish insonni passiv yordam oluvchi emas, balki o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi faol shaxsga aylantiradi.

Ta’lim va kasbiy malakaga ega bo‘lishning o‘zigina yuqori daromadli bandlikni kafolatlamaydi. Buning uchun mehnat bozorida tegishli ish o‘rinlari va infratuzilma mavjud bo‘lishi, kasbga o‘qitish mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Raqamlashuv sharoitida katta yoshdagilar uchun hayot davomida ta’lim olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bandlikni baholashda miqdor bilan birga uning sifatiga (rasmiy shartnoma, munosib ish haqi, xavfsizlik) e’tibor qaratish lozim.



Ushbu amaliy tajriba NNTlar kasbiy tayyorgarlikni aholining real ehtiyojlariga moslashtirishda muhim ijtimoiy hamkor ekanini ko‘rsatdi.Davlat ijtimoiy huquqlar kafolatlari, siyosat va moliyalashtirish uchun mas’ul bo‘lsa, NNTlar xizmat ko‘rsatish, mahalliy ehtiyojlarni aniqlash va jamoatchilik fikrini ifodalashda teng hamkor sifatidat qatnashadi. NNTlar ijtimoiy siyosatning o‘rnini bosuvchi emas, balki uning manzilliligini kuchaytiruvchi institutdir.

Ijtimoiy siyosat natijalarini faqat ajratilgan mablag‘lar yoki o‘quv kurslari soni bilan baholash uning haqiqiy ta’sirini aks ettirmaydi. Shu sababli, ijtimoiy siyosat samaradorligini baholashda bir-birini to‘ldiruvchi tizimli mezonlar majmuasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda 2025-yil uchun rasmiy statistikada ishsizlik darajasi 4,8 foiz deb ko‘rsatilgan [3]. Ishsizlik mehnat bozoridagi holatni, kambag‘allik esa aholining turmush darajasini ifodalagani bois, ularni alohida, ammo bir-biri bilan bog‘liq indikatorlar sifatida tahlil qilish zarur.

Ijtimoiy siyosat samaradorligi davlat sa’y-harakatlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) ishtirokiga ham bevosita bog‘liq. NNTlar davlat idoralariga nisbatan yuqori egiluvchanlik, mahalliy muammolarni ich-ichidan bilish, aholining ehtiyojmand qatlamlari bilan bevosita va ishonchli muloqot o‘rnatish hamda ijtimoiy muammolarga tezkor va innovatsion yechimlar taklif etish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ehtiyojmand qatlamlar (xotin-qizlar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar) bilan bevosita ishlaydigan NNTlar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash jarayonida yaxlit tizim sifatida qatnashmoqda. Ular ijtimoiy muhtoj oilalarni manzilli aniqlab, ularni tegishli xizmatlarga yo‘naltirishdan boshlab, yoshlar va xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, qayta tayyorlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishgacha bo‘lgan bosqichlarni amalga oshiradi.

Bunda kasbiy tayyorgarlik jarayoni shunchaki o‘qitish bilan cheklanmay, ishga joylashish, o‘zini o‘zi band qilish va doimiy hamkorlik bilan mustahkamlanadi. Shu bilan birga, NNTlar aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish va ijtimoiy sheriklik hamda jamoatchilik nazorati orqali davlat dasturlarining manzilliligi, ochiqligi va natijadorligini oshirishda muhim institutsional bo‘g‘in bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy siyosat va NNTlar hamkorligining amaliy imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida Toshkent shahrida tajriba loyihasi amalga oshirildi. Tashabbus Toshkent xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash markazi hamda Fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash markazining Toshkent shahar bo‘limi tomonidan, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining moliyaviy ko‘magida tashkil etildi.

Loyiha doirasida mehnat bozorida imkoniyatlari cheklangan, ishsiz, parvarish majburiyatlari tufayli uyda bo‘lgan hamda mutaxassisligi bo‘yicha band bo‘lmagan 100 nafar xotin-qizlar va yoshlar kasbiy tayyorgarlik hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitildi. Tashabbusdan ko‘zlangan asosiy maqsad – NNTlar faqatgina ijtimoiy muammolarni aniqlash bilan cheklanmasdan, amaliy o‘quvlarni tashkil etish, kasbga o‘rgatish, bandlikni ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda faol subyekt sifatida ishtirok eta olishini amalda isbotlashdan iborat edi.

Loyiha natijasida ishtirokchilarning 47 nafari ishga joylashdi, 29 nafari o‘zini o‘zi band qildi va 24 nafari xususiy biznesini boshladi.

Bu borada, eng avvalo, bandlik natijalari (ishga joylashganlar ulushi, ish o‘rnida saqlanib qolish va rasmiy mehnat munosabatlari) hamda daromadlar barqarorligi (mehnat daromadlarining o‘sishi va ularning tashqi iqtisodiy xavflarga chidamliligi) asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar inson kapitalining rivojlanishi (egallangan kasbiy malakadan amalda foydalanish va mehnat unumdorligi) hamda ijtimoiy xizmatlar qamrovi (ta’lim, tibbiyot, huquqiy va parvarish xizmatlarining ommabopligi) bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, baholash tizimi xotin-qizlar, yoshlar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy tenglik va teng imkoniyatlar yaratilganligini, oilalarning kambag‘allikka qayta tushish xavfini kamaytiruvchi barqarorlik mexanizmlari samaradorligini hamda

davlat organlari, mahalla va NNTlar o‘rtasidagi institutsional hamkorlik natijadorligi ва fuqarolarning bundan qanchalik qoniqqanligini ham qamrab olishi lozim.

Xulosa va takliflar. Tahlillar kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash bir-biridan ajralgan yo‘nalishlar emas, balki yagona ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari ekanini ko‘rsatadi.

Kambag‘allikni barqaror qisqartirish uchun moddiy yordam bilan bir qatorda, insonning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, munosib ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi to‘siqlarni bartaraf etish talab etiladi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining pasayishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muhim natijalaridan biridir. Biroq erishilgan natijalarni uzoq muddatli va barqaror xususiyatga ega qilish uchun ijtimoiy siyosatning keyingi bosqichida insonning iqtisodiy mustaqilligi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va ijtimoiy himoya kafolatlarini uyg‘unlashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini individual ehtiyojlar va oilalarning real imkoniyatlariga asoslangan holda takomillashtirish lozim. Mahallabay ishlash jarayonida oilalarning moddiy ahvoli bilan birga, mehnatga layoqatli a’zolarining malakasi, bandlik holati, ta’lim ehtiyoji va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan talabi ham hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, kasbiy ta’lim dasturlarining natijadorligini baholashda o‘quv kurslarini tugatganlar sonidan tashqari, ishga joylashish, ish joyida saqlanib qolish, daromadlarning o‘zgarishi va malakadan amalda foydalanish ko‘rsatkichlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, bandlik siyosatini munosib mehnat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Yangi ish o‘rinlarining barqarorligi, mehnat shartnomalarining rasmiyligi, xavfsiz mehnat sharoiti, munosib ish haqi va ijtimoiy kafolatlar bandlik natijalarini baholashning muhim mezonlariga aylanishi lozim.

To‘rtinchidan, davlat organlari, mahalla, ish beruvchilar, ta’lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish kerak. NNTlarni kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, huquqiy maslahat berish va ijtimoiy dasturlar monitoringiga aniq vazifalar hamda baholanadigan natijalar asosida jalb etish mumkin.

Beshinchidan, NNTlarning ijtimoiy buyurtmalar va grant loyihalarida ishtirokini natijaga yo‘naltirilgan mexanizmlar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda moliyalashtirishning ochiqligi, xizmatlar sifatini baholash, manfaatdor guruhlarning fikrini inobatga olish va erishilgan natijalar bo‘yicha hisobdorlik ta’minlanishi zarur.

Oltinchidan, ijtimoiy siyosat samaradorligini baholash uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sotsiologik indikatorlardan ham foydalanish lozim. Aholining ijtimoiy xizmatlardan qoniqishi, imkoniyatlar tengligi, mehnat bozoridagi to‘siqlar, ijtimoiy ishonch va kambag‘allikka qayta tushish xavfini o‘rganish siyosatning real ta’sirini aniqlashga yordam beradi.

Yettinchidan, mehnat bozorida ishtirok etishi cheklangan aholi guruhlari uchun alohida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Xotin-qizlar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va parvarish majburiyatlariga ega fuqarolar uchun moslashuvchan ish shakllari, kasbiy tayyorgarlik va tegishli ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir.

Umuman olganda, kambag‘allikni qisqartirishning barqaror modeli “ijtimoiy yordam – inson kapitali – munosib bandlik – barqaror daromad – ijtimoiy farovonlik” o‘zaro bog‘liqligiga asoslanishi lozim. Ushbu zanjirning har bir bo‘g‘inida davlat, mahalla, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi talab etiladi.

Ijtimoiy siyosatning bosh maqsadi insonni faqat moddiy yordam oluvchi subyekt sifatida ko‘rish emas, balki uning qadr-qimmati, huquqlari, qobiliyatlari va mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat. Shu bilan birga, mehnat qilish imkoniyati cheklangan shaxslarning munosib turmush kechirishi uchun ijtimoiy himoya kafolatlarini saqlash va rivojlantirish ham davlatning muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

Kambag‘allikni qisqartirishning haqiqiy mezoni raqamlarning o‘zgarishidagina emas, balki inson hayotidagi ijobiy va barqaror o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Har bir fuqaroning munosib mehnat qilish, bilim olish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va jamiyat taraqqiyotida ishtirok etish imkoniyati kengaygan sari ijtimoiy siyosatning insonparvarlik mazmuni va amaliy samaradorligi ham ortadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kambag‘allik darajasi. Statistika axborot-tahlil tizimi (SIAT). URL: https://siat.stat.uz/data/3495/?lang=uzc (murojaat sanasi: 18.10.2026).
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi., https://president.uz/oz/lists/view/9544
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ishsizlik darajasi. Statistika axborot-tahlil tizimi (SIAT). URL: https://siat.stat.uz/data/1875/?lang=uzc (murojaat sanasi: 18.10.2026).
4. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press.
5. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press.
6. International Labour Organization. Decent Work. URL: https://www.ilo.org/topics-and-sectors/decent-work
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida. 2026-yil 2-aprel. URL: https://president.uz/uz/lists/view/9072
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga oid rasmiy materiallar. URL: https://president.uz/
9. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi turmush darajasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. URL: https://stat.uz/oz/rasmiy-statistika-2/living-standards-3
11. Alkire, S., & Foster, J. (2011). Counting and multidimensional poverty measurement. Journal of Public Economics, 95(7-8), 476-487.
12. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2019). Good Economics for Hard Times. PublicAffairs.